

MAKTABGACHA TA'LIMDA QO'L MEHNATINI RIVOJLANTIRISH

Turdaliyeva Nurjahon Abdunosir qizi

Qo'qon universiteti "Ta'lim kafedra"si o'qituvchisi

Orcid: <https://orcid.org/0009-0001-4509-7550>

E-mail: n12710420@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15777966>

Annotatsiya: Maktabgacha bog'cha yoshidagi bolalarning mehnat ta'limini faol qo'l mehnatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu faoliyat turida bola yuqori qiziqishni his etadi. Ushbu omil bolalarning umumiy aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular uchun dekorativ-amaliy san'atning badiiy mazmuniga asoslangan estetik faoliyatning tarkibiy qismlaridan biri sifatida badiiy ish alohida ahamiyatga ega. Maqolada qo'l mehnatining bog'cha yoshidagi bolalarga qanday foydalari borligi va pedagoglardan talab etiladigan jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, qo'l mehnati, maktabgacha ta'lim, badiiy ishlar, plastilin, origami, qaychi, dekorativ, tarbiyalovchi.

РАЗВИТИЕ РУЧНОГО ТРУДА В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: Трудовое воспитание дошкольников невозможно представить без активного ручного труда. К этому виду деятельности ребенок чувствует повышенный интерес. Этот фактор положительно влияет на общее умственное развитие детей. Для них художественное творчество имеет особое значение как одна из составляющих эстетической деятельности, основанной на художественном содержании декоративно-прикладного искусства. В статье описаны преимущества ручного труда для детей дошкольного возраста и аспекты, необходимые педагогам.

Ключевые слова: личность, ручной труд, дошкольное образование, художественные произведения, пластилин, оригами, ножницы, декоратор, воспитатель.

DEVELOPMENT OF MANUAL LABOR IN PRESCHOOL EDUCATION

Abstract: Labor education of preschool children cannot be imagined without active manual labor. In this type of activity, the child feels high interest. This factor has a positive effect on the general mental development of children. For them, artistic work is of particular importance as one of the components of aesthetic activity based on the artistic content of decorative and practical art. The article describes the benefits of manual labor for children of kindergarten age and the aspects required from pedagogues.

Key words: personality, manual labor, preschool education, artistic works, plasticine, origami, scissors, decorator, educator.

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'l mehnati - bu eng oddiy asboblardan foydalangan holda mustaqil buyumlarni ishlab chiqarish. Bu ish, faoliyat amaliy bo'lib, ma'lum darajada foydali yo'nalishga ega.

Bolalarning o'z mehnat faoliyatining maqsadga muvofiqligini anglashi uning sifatiga, har bir bolaning mehnat jarayoni va natijasiga munosabatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qo'l mehnatining individual xarakterdaligi (ya'ni, jamoaviy ishda ham, bolalarning har biri uning bir qismini o'z qo'llari bilan bajaradi), unga barcha bolalarni izchil jalb qilish, ba'zi kamchiliklarni tuzatish imkonini beradi.

Jamoaviy vazifalarni bajarish bolalarda o'zaro muzokaralar olib borish, o'z manfaatlari va istaklarini umumiy maqsadga bo'ysundirish qobiliyatini rivojlantiradi, do'stlik, o'zaro yordam, mas'uliyat tuyg'ularini uyg'otadi, tashabbuskorlik, zukkolikni rivojlantiradi.

Vizual xarakterdagi jamoaviy vazifalarni bajarish jarayonida bolalar kelgusi ishni mustaqil ravishda rejalashtirishni, o'z harakatlarini umumiy reja bilan muvofiqlashtirishni, uni amalga oshirish ketma-ketligini o'ylashni, kerakli vizual materialni tanlashni va ulardan foydalanishni o'rganadilar. Shu bilan birga, jamoaviy mehnatda bolalarning individual xususiyatlari aniq namoyon bo'ladi, ijodiy qobiliyatlar shakllanadi.

ASOSIY QISIM

Badiiy mehnat - bu bolaning hayotini, o'yinlarini, mehnatini va dam olishini bezash uchun foydali va badiiy, estetik ahamiyatga ega bo'lgan buyumlar va predmetlarni yaratish uchun turli materiallar bilan mehnatidir. Bu bolalar mehnati dekorativ, badiiy-hunarmandchilik faoliyatidir, chunki bola go'zal narsalarni yaratishda o'z g'oyalari, bilimlari va mehnat faoliyati jarayonida egallagan amaliy tajribasi asosida materiallarning estetik fazilatlarini hisobga oladi. To'g'ri tashkil etilgan qo'l va badiiy mehnat bolalarga materiallarning sifati va imkoniyatlari haqida bilim beradi, hunarmandchilikning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirishga intilishni uyg'otadi, ularni dekorativ-amaliy san'at bilan tanishtiradi.

Mehnat tarbiyasiz bola shaxsini shakllantirish mumkin emas. Katta va tayyorlov guruhlarida ijodkorlik elementlari bilan qo'l mehnati asosiy rol o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligining namoyon bo'lishi ularga taklif qilingan aqliy vazifalarni bajarish tabiati bilan belgilanadi. Bolalar o'zlarining ijodiy energiyasini bo'shata olishlari juda muhimdir. Amaliy ahamiyati jihatidan tikuvchilik mashg'ulotlarida ko'plab muhim fazilatlar tarbiyalanadi: harakat qilish odati, to'siqlarni yengib o'tish qobiliyati, mas'uliyat, ishni rejalashtirish va uni amalga oshirish ketma-ketligidagi bosqichlarni oldindan ko'ra bilish. Xususan, munchoqlar qo'l mehnatida tikuvchilikning bir turi bo'lib, uning yordamida siz quyidagi vazifalarni hal qilishingiz mumkin:

O'z vatani madaniyatiga, xalq amaliy san'atining kelib chiqishiga qiziqish uyg'otish, voqelikka estetik munosabat, mehnatsevarlik, aniqlik, qat'iyatlilik, sabr-toqat, boshlangan ishni oxiriga etkazish qobiliyati, ishni bajarishda o'zaro yordam, tejamkorlik; foydalaniladigan materiallar, mehnat madaniyati asoslarini singdirish; harakat qobiliyatlarini, xayoliy fikrlashni, diqqatni, tasavvurni, ijodkorlikni rivojlantirish, estetik va badiiy didni shakllantirish.

Mashg'ulotlar jarayonida bolalarda diqqat, kuzatish, tasavvur, xayol, ijodkorlik rivojlanadi. Har bir topshiriqda, har bir mashg'ulotda bolalarga orzu qilish imkoniyati beriladi, asarga o'z tasvirlarini kiritish rag'batlantiriladi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy ishlarni bajarish jarayonida barcha aqliy jarayonlar shakllanadi, ijodiy qobiliyatlar va atrofdagi dunyoni ijobiy-emotsional idrok etish rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorliklarini rivojlantirishda qo'l mehnati jarayonida qog'oz va tabiat materiallaridan o'yinchoq yasashga o'rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlar davomida tabiiy materiallardan "Tizimcha" yasash, kartondan "Stakancha", matodan "Mo'yqalam artgich", "Ninachi va chumoli" yasash mumkin. Ayni o'rinda shular haqida so'z yuritiladi.

Mashg'ulotning maqsadi: bolalarni tabiiy materiallardan, kartondan, matodan foydalanib, turli ashyolar yasashga o'rgatish.

Mashg'ulotda bajariladigan vazifalar: qo'l mehnati bilan shug'ullanishga o'rgatishni davom ettirish; bolalarda o'zlarining mehnat ko'nikmasi va malakalarini rivojlantirish; bolalarni tabiatni asrashga, muhofaza qilishga, tejamkorlikka o'rgatish.

Mashg'ulot jihozlari: dub daraxti, kashtan daraxti mevalari, na'matak guli mevasi, patlar, plastilin, novdachalar, karton qog'oz, yelim, ip, igna, mato qiyqimlari.

Mashg'ulotning borishi: Tarbiyachi: bolalar, o'lkamizda oltin kuz fasli kezmoqda. Bilamizki, kuz faslida sabzavot, mevalar pishadi, to'g'rimi? Manzarali daraxtlarning mevalari ham pishib, ko'chalarda, xiyobonlarda ostiga to'kilib yotibdi.

Bolalar bilasizlarmi, bugungi mashg'ulotimizda sizlar bi-lan ana shu manzarali daraxt mevalaridan o'yinchoqlar yasaymiz. Faqatgina o'yinchoqlar emas, birinchi sinfga boradigan kichikintoylar uchun hisob-kitob mashg'ulotida foydalanish mumkin bo'lgan tizimchalarni ham yasaymiz.

Tizimcha yasalishi uchun qalinroq ip olamiz-da kashtan mevasini teshib, ipga o'tkazamiz. Dastlab bolalar 10 raqami ichida sanashni o'rganishlari sababli, tizimchaga 10 ta mevani ipdan o'tkazib chiqamiz. Bu tizimchani eman daraxti mevasidan ham tayyorlash mumkin. Agar meva bir oz ko'rib qolgan bo'lsa, ozroq suvga solib qo'yilsa, ustki po'stlog'i yumshaydi va tizimchani tayyorlash mumkin bo'ladi. Qani kim sanab beradi?

Tarbiyachi: barakalla, bolalar sizlar bilan mana bunday stakanchalar tayyorlaymiz. Kvadrat shaklidagi karton qog'oz olib, undan doira qirqamiz. So'ng to'rtburchak shaklidagi qog'ozning pastki qismini bir sm enlikda qoldirib arra tishlariga o'xshatib kesib chiqamizda, ikki tomonini yelimlab, pastki qismidagi qirqilgan bo'laklarga yelim surtamiz va doirachaga yelimlaymiz. Stakancha tayyor. Bolajonlar, sizlar ham stakanchangizni tayyorlab bo'ldingizlarmi?

Barakalla! Stakan tayyor bo'lgan bo'lsa, endi mo'yqalamni artish uchun artgich, salfetka, tayyorlaymiz. Keraksiz matolardan bir necha kvadratchalar qirqib undan doirachalar hosil qilamiz. Doirachalarni ustma-ust qo'yib, o'rtasidan tiqib qo'yamiz. Mana mo'yqalam artgich ham tayyor bo'ldi.

Bolalar, o'yinchoq ham yasaylik, deyapsizlarmi? Albatta, o'yinchoqlar ham yasaymiz. Hozir na'matak va kashtan daraxtining mevasidan "Ninachi va chumoli"ni yasaymiz. Buning uchun kashtan mevasini olib, unga sal kichikroq kashtan mevasiga chumolining bosh qismini o'rnatamiz, oyoq-qollarini esa novdadan yasab, to'nkaga o'tkazib qo'yamiz, ko'zlarini esa plastilindan yasaymiz. Ninachining tanasi kashtan mevasidan tayyorlanib, uning orqa tomoniga gugurt cho'p o'rnatib, kichik kashtandan bosh qismni yasaymiz: qo'l-oyoqlarini aso novdadan tayyorlaymiz. Manzarali daraxt mevasidan qanotlarini yasab, plastilin bilan yopishtiramiz. Mana, ninachimiz ham tayyor! Qani eslangchi, ninachi haqidagi qaysi masalni bilasiz?

Bolalar javobi rag'batlantirilib, mashg'ulot yakunlanadi.

Bolalarga chiqindi materiallar (ip, shoyi, mo'yna, polietilen kabilar)dan foydalanib har xil mazmunda applikatsiyalar tuzish taklif etiladi. So'ng ularga matolardan o'yinchoqlar, turli bayram ertaliklari uchun ertak kahramonlarining kiyimlari hamda quvnoq qiziqchilar, petrushkalar kiyimlarini tikishga ham o'rgatiladi. Bolalarning o'zlari yasagan o'yinchoqlar ijodiy, harakatli o'yinlar jarayonida namoyon bo'ladi. Quyidagi rasmlarda tabiat ashyolaridan bajarilgan o'yinchoqlar namunalari keltirilgan:

Tabiiy materialdan mozaika ishlari. Mozaika monumental dekorativ san'at turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo'llaniladigan materiallariga ko'ra ham, naqshi va rasmlariga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. O'rta Osiyoda madrasalar, machitlar, xukmdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Mozaika bilan binolarning tashqi

qismlari, interer devorlari va xalq amaliy san'ati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna spool plitalardan foydalaniladi. Laosda rangli ko'zgu parchalaridan ajoyib mozaika asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qo'shilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi.

Qum va alebastrdan applikatsiya. Qum elab olinadi, ozgina bint yoki marli, ta'svir yoki ertak asosida, tabiat manzarasi, PVA yelimi, qora kopirovka, kalka qog'oz, qora flamaster, akvarel' buyog'i yoki guash, mo'y qalam qora qalam, eski gazeta kerak bo'ladi.

Bajarish yo'li: tabiat manzarasi yoki ertak asosidagi tasvir oq qog'ozga kalka yordamida tushirib olinadi. Uning ustidan flamasterda tasvir tarhi chiziladi. So'ngra tushirib olingan tasvirga PVA yelimi surtiladi, doka yoki elakda elangan qum tezda tasvir ustiga sepiladi. Qurigach bo'yash ishi boshlanadi. Birinchi rang qurib bo'lgach, ikkinchisiga o'tiladi, quritib uchinchi ranga o'tiladi. Shu tariqa bo'yash ishi tugatiladi. Qumdan bajarilgan ish rangsiz lakda laklanmaydi.

Quyidagi tavsiya qilinayotgan applikatsiya ishlarini bajarish murakkab emas. Ularni yasash uchun ijodkorlik qobiliyati, mahorat va ehtiyotkorlik talab qilinadi. Hususan qum va alebastr orqali bajariladigan applikatsiya ishini bajarish uchun elangan qum va alebastr, ikki qavatli doka, ertak asosidagi rangli kitobcha, kalka qog'oz, PVA yelimi, qora flomaster, qora qalam, akvarel bo'yoq, bostirib olish uchun eski gazeta kerak bo'ladi. Avvalo, qum yoki alebasterni elakchada elab olinadi. Ular yirik tosh va boshqa narsalardan xoli bo'lishi kerak.

So'ngra ertak qahramonlari tasvirlari tanlab olinadi. Tanlangan tasvirni kalka, ya'ni xitoy qog'ozi orqali qora qalam yordamida tushirib oling. Oq qog'ozga yoki rangli fonga tushirib, ustidan qora flomaster yordamida yurgizib chiqiladi. Unga PVA yelimini tasvir ustiga chiqarib yubormay, tezlikda surtib chiqish kerak. Yelim surtilmay qolgan joyi qolmasin. Chunki alebastr yoki qum sepilganda yopishmay qolishi mumkin. Elangan qum yoki alebastrni ikki qavatli dokaga ikki qoshiqcha solib yelim surtilgan tasvir ustiga sepiladi. Bu ishni bajarib bo'lgach, qum yoki alebastrning ustini eski gazeta bilan bostirib olinadi. So'ng gazetani olib, tasvirni sekin ko'tarib qumli idishga silkitiladi. Yopishgan qum tasvir ustida qoladi, yopishmagani idishgan tushadi. So'ngra ikki soat quritish uchun vaqt kerak bo'ladi. Qum yoki alebastr yaxshilab qurigach, bo'yash ishlari bajariladi. Bo'yosh uchun akvarel bo'yog'i yoki guash kerak bo'ladi. Bitta rangni bo'yab bo'lgach, quritib turib ikkinchi rangga o'tiladi. Chunki quritmay ketma-ket davom ettirilsa chaplanib ketishi mumkin. Qum va alebasterda bajarilgan ishlar rangsiz lakda laklanmaydi.

Tuxum po'chog'idan buyum yasash. Tuxum po'choqlaridan bajariladigan applikatsiya ishi uchun kerakli jihozlar: rangli, ertakli kitobchalar, oq qog'oz yoki rangli qog'oz, kalaka (xitoy qog'oz), PVA yelimi, tozalab yuvib kurtilgan tuxum po'chog'i, akvarel bo'yoq, qora qalam, qora flomaster, rangsiz lak (PF-284). Tuxum po'chog'idan buyum yasash uchun tuxum po'chog'ini maydalangan va butun holda saklash mumkin. Tuxum po'chog'ini butun asrash uchun tuxumning ikki uchi teshiladi va uning ichidagilari puflab chiqariladi. Buning natijasida ichi bo'sh tuxum po'chog'iga ega bo'linadi. Bunday tuxum po'chog'i sinuvchan bo'lganligi uchun qutichalarda saqlash kerak.

Butun tuxum po'chog'i va tuxum po'chog'ining maydalanganidan buyum tayyorlash mumkin. Masalan: kaptar, baliq, masxaraboz, kemacha, jo'ja va archa o'yinchoqlari. Avvalo tuxum po'chog'ini yuvib, quritib, xovonchada maydalanadi. Juda kukun bo'lib ketmasligi kerak. So'ngra rangli fonga tasvirni kalka qog'ozi yordamida qora qalamda tushirib olinadi va ustidan qora flomaster bilan tasvir ustidan yurgizib chizib chiqiladi, uning ketidan PVA yelimi surtiladi. Jarayonda tezlik bilan ishlash talab qilinadi. Sababi yelim qotib qolmasligi kerak. Surtilgan yelim ustidan maydalangan tuxum po'chog'ini qo'lda sepib, gazeta bilan bosib chiqiladi. Yopishgan tuxum po'chog'i tasvirda qoladi. Yopishmagani to'kiladi. Shundan keyin bo'yash ishini boshlash

mumkin. Tasvirni rangli kitobchadagi tasvir rangiga qarab akvarel bo‘yoqda bo‘yaladi. Bo‘yoqni iloji boricha suvga nisbatan ko‘proq ishlatish lozim. Bitta bir xil rangga bo‘yab quritib, ikkinchi rangni bo‘yashga kirishiladi. Bo‘yoq qurigach rangsiz lakda laklab chiqiladi. Shunda tuxum po‘chog‘i yaxshi yopishadi va yaltirab turadi.

Tuxum po‘chog‘idan “Sichqoncha” yasash

Kerakli ashyolar: tuxum po‘chog‘i, pushti rangdagi qog‘oz yoki shu rangdagi mato, plastilin, PVA yelimi, qaychi, mo‘yqalam, flomaster va qalam.

Bajarish usuli: shablon asosida sichqonchaning qulog‘ini ikki buklangan qog‘oz yoki matodan qirqasiz, quloqlarini o‘rtasidan qirqib bir-biriga yelimlaysiz va ozgina buklab, tuxumga yelimlanadi. Ingichka kesma qog‘oz qirqiladi, bu mo‘ylovi uchun. Flamaster yordamida ko‘zi, og‘zi, mo‘ylovlarini chiziladi. Qulog‘i va dumi yelimlanadi. Plastilindan kichkina dumaloq qilib tuxumning uchiga yopishtiriladi (bu burni). Ustidan yelim surtib qo‘yiladi.

Zamonaviy sharoitda maktabgacha ta‘lim muassasalarida disklar, bir martalik plastik idishlar kabi tashlandiq materiallardan ham o‘yinchoqlar yasash mumkin

(1-rasm):

Tashlandiq materiallardan yasalgan o‘yinchoqlar

Disklardan yasalgan o‘yinchoqlar			
			
Bo‘g‘irsoq	Ko‘ldagi o‘rdaklar	Kuchuk	Lama
			
Mening itim	Gul	Filcha	Qurbaqa
Bir martalik plastik idishlardan yasalgan o‘yinchoqlar			
			
Asalarilar	Ko‘ldagi qurbaqa	Nilufar guli	Xonqizi

			
O'rdak	Gul va xonqizi	Ko'lfagi nilufar va qurbaqa	Tovus
Boshqa turli materiallardan yasalgan o'yinchoqlar			
			
Samolyotl	Vazadagi gul	Bog'dagi kapalak	O'gimchak

XULOSA

Maktabgacha ta'lim bosqichida qo'l mehnatini rivojlantirish bolalarning nafaqat jismoniy, balki aqliy va ijodiy salohiyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Kichik motorika ko'nikmalari bolalarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga, nutq va ijodiy faoliyatning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'l mehnati mashg'ulotlari tizimli va samarali tashkil etilishi, pedagoglar tomonidan individual yondashuv qo'llanilishi lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va noan'anaviy metodlarning qo'llanilishi qo'l mehnatini yanada qiziqarli va samarali qiladi, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini kuchaytiradi. Shuningdek, ota-onalar bilan uzviy hamkorlik orqali uy sharoitida ham qo'l mehnati ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir.

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'l mehnatini rivojlantirish ularning umumiy rivojlanishi va kelajakdagi ta'limga tayyorgarligida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, bu yo'nalishdagi pedagogik ishlarni doimiy ravishda takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'Ofurova G., Axmedova T. Bolalar Ijodini Rivojlantirish Metodikasi. – Toshkent: Fan Va Texnologiya, 2021.
2. Yuldasheva N., Po'Latova N. Maktabgacha Yoshdagi Bolalar Psixologiyasi. – Toshkent: TDPU Nashriyoti, 2020.
3. Axmedova M. Maktabgacha Yoshdagi Bolalarda Estetik Tarbiya Va Ijodiy Qobiliyatlar. – Ilmiy Maqola. // Pedagogik Izlanishlar Jurnal, 2022, №3.

4. Qizi Turdaliyeva, N. A. (2024). Maktabgacha Yoshdagi Bolalar Ijodiy Qobiliyatlarni Rivojlantirishning Nazariy Asoslari. Golden Brain, 2(7), 48-52.
5. Soliyev, I., & Boymirzayeva, S. (2023). Maktabgacha Ta'lim Tizimida Innovatsion Yondashuvning Uslubiy Asoslari Va Pedagogik Shart-Sharoitlari. Наука И Инновация, 1(6), 128-129.
6. Qizi Boymirzayeva, S. O. (2024). Maktabgacha Ta'lim Tashkilotida Bo 'Lajak Tarbiyachining Kreativligini Rivojlantirish. Golden Brain, 2(7), 41-47.
7. Orinova, F., & Turdaliyeva, N. (2025). Developing Creative Thinking Through Handicraft For Preschool Children. International Journal Of Artificial Intelligence, 1(2), 1610-1616.
8. Turdaliyeva, N., & Mamadjonova, D. (2024). Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida Bolalarga Ta'lim-Tarbiya Berishda Ijodiy O'yinlardan Foydalanish. Nordic_Press, 5(0005)
9. Nurjahon, T. (2024). Maktabgacha Yoshdagi Bolalarda Qol Mehnatini Rivojlantirish. University Research Base, 456-460.